

Yashil kimyo – xavfsizroq tozalash vositasini loyihalash

Zamonaviy ta'lim muassasalarida ekologik xavfsizlik va talabalar salomatligi birinchi o'rinda turadi. Maktablarda, ayniqsa kimyo va biologiya xonalarida ishlatiladigan tozalash vositalari ko'pincha atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil kimyo tamoyillari asosida xavfsizroq o'rnini bosuvchilarни ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtida ko'plab ta'lim muassasalarida ishlatiladigan an'anaviy tozalash vositalari kuchli kimyoviy tarkibga ega bo'lib, uchuvchi organik birikmalar, xlorli komponentlar va yuqori pH darajasiga ega. Bu vositalar o'quvchi va o'qituvchilarda allergik reaksiyalar, bosh og'rig'i va nafas olish yo'llarida yallig'lanishlarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, bu kimyoviy moddalar terini qichishtirish, ko'zlarga zarar yetkazish xavfini tug'diradi va kanalizatsiya tizimi orqali suv resurslarini ifloslantiradi. Atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan bu moddalar uzoq muddat davomida tabiatda saqlanib, ekotizimga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

1-topshiriq: Xlorli tozalash vositasini yashil kimyo tamoyillari asosida tahlil qilish

Vazifa a)

Hozirgi vaqtida ishlatilayotgan xlorli tozalash vositasini 12 yashil kimyo tamoyillaridan kamida 3 tasi asosida tahlil qiling.

Vazifa b)

Har bir tamoyilga zid jihatni ko'rsating va natijani "tamoyil – muammo – oqibat" ko'rinishida yozing.

Vazifa c)

Oqibatlarni 3 yo'naliшda izohlang: sog'liq uchun xavfli, ekologik ta'sir, iqtisodiy oqibatlar.

Vazifa d)

Tahlilingizni jadval yoki grafik shaklida taqdim eting.

Xlorli tozalash vositalarining asosiy muammolari quyidagilar: etiketkada "ko'z bilan kontakt xavfli" belgisining mavjudligi, kuchli pH ko'rsatkichi, kuchli hidning tarqalishi va ishlatganda terini qichishtirishi. Bu xususiyatlar yashil kimyoning asosiy tamoyillariga zid keladi va ta'lim muhitida xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi.

Tahlil natijasida ma'lum bo'lishicha, an'anaviy tozalash vositalari zararli moddalarni kamaytirishdan ko'ra, ularni ko'paytiradi. Shuningdek, bu vositalar energiya sarfi yuqori bo'lgan jarayonlarda ishlab chiqariladi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2-topshiriq: Xavfsizroq alternativalarni baholash

Maktab omborida mavjud xavfsizroq alternativalar:

- Issiq suv + sovun eritmasi
- Sirka eritmasi (1:4 nisbatda suv bilan)
- Soda pastasi (NaHCO_3 + suv)

Vazifalar:

- Har bir retseptni mezonlar bo'yicha baholash
- Har bir mezon uchun 0–5 ball berish
- Umumiy ballarni hisoblash va jadval tuzish
- Eng yuqori ball to'plagan retseptni tanlash
- Qarorni asoslash va dalillar bilan tushuntirish



Baholash mezonlari jadvali

Mezon	0–1 ball (past)	2–3 ball (o'rtacha)	4–5 ball (yuqori)
Toksiklik	Yuqori darajada zararli; teri/ko'zga xavfli; nafas olishda muammo tug'diradi	Nisbatan xavfsiz, lekin ehtiyyot chorasi talab etiladi	Inson salomatligi uchun xavfsiz, toksik ta'siri yo'q
Samaradorlik	Yog 'va mikroblarni deyarli ketkaza olmaydi	Yog'/changni tozalaydi, lekin mikroblarga ta'siri past	Yog', marker, changni samarali ketkazadi, gigiyenik tozalashni ta'minlaydi
Hid	Juda yoqimsiz yoki keskin hid; allergiya chaqiradi	Yengil hid bor, uzoq vaqt saqlanadi	Deyarli hidlanmagan yoki tez yo'qoladigan yoqimli/yengil hid
Xarajat	Qimmat, maktab byudjetiga mos emas	O'rtacha xarajat, lekin tez-tez yangilash talab etadi	Juda arzon, mavjud resurslardan tayyorlash mumkin
Parchalanuvchanlik	Atrof-muhitda uzoq vaqt saqlanadi, chiqindilar ekologik xavfli	Nisbatan tez parchalanadi, lekin iz qoldiradi	Tabiatda tez va xavfsiz parchalanadi, chiqindi xavfi yo'q

Baholash mezonlari jadvali

Mezon	0–1 ball (past)	2–3 ball (o'rtacha)	4–5 ball (yuqori)
Toksiklik	Yuqori darajada zararli; teri/ko'zga xavfli; nafas olishda muammo tug'diradi	Nisbatan xavfsiz, lekin ehtiyyot chorasi talab etiladi	Inson salomatligi uchun xavfsiz, toksik ta'siri yo'q
Samaradorlik	Yog' va mikroblarni deyarli ketkaza olmaydi	Yog'/changni tozalaydi, lekin mikroblarga ta'siri past	Yog', marker, changni samarali ketkazadi, gigiyenik tozalashni ta'minlaydi
Hid	Juda yoqimsiz yoki keskin hid; allergiya chaqiradi	Yengil hid bor, uzoq vaqt saqlanadi	Devorlanmagan yoki tez yo'qoladigan yoqimli/yengil hid
Xarajat	Qimmat, maktab byudjetiga mos emas	O'rtacha xarajat, lekin tez-tez yangilash talab etadi	Juda arzon, mavjud resurslardan tayyorlash mumkin
Parchalanuvchanlik	Atrof-muhitda uzoq vaqt saqlanadi, chiqindilar ekologik xavfli	Nisbatan tez parchalanadi, lekin iz qoldiradi	Tabiatda tez va xavfsiz parchalanadi, chiqindi xavfi yo'q